



MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

PhD Xusanov Otabek Nishonovich

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT
va fuqarolik jamiyatlarining boshqa institutlarini
qo'llab-quvvatlash jamoat fondi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat granti shaklida moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari tahlil qilingan va tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlar, moliya, pul mablag'lari, davlat granti.

МЕТОДЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ НЕГОСУДАРСТВЕННЫЙ И НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СТРАНЕ

PhD Хусанов Отабек Нишонович

*Общественного фонда поддержки ННО и других
институтов гражданского общества при Олий
Мажлисе Республики Узбекистан*

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы финансовой поддержки негосударственных некоммерческих организаций в виде государственных грантов и предлагаются предложения по совершенствованию системы.

Ключевые слова: негосударственные некоммерческие организации, финанс, денежные средства, государственный грант.

METHODS OF FINANCING NON-GOVERNMENTAL AND NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE COUNTRY

PhD Khusanov Otabek Nishonovich

*The public fund for the support of NGOs and
other institutions of civil society under the
Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. This article analyzes the issues of financial support of non-governmental non-profit organizations in the form of state grants and offers suggestions for improving the system.

Key words: non-Governmental non-profit organizations, finance, funds, state grant.

Kirish.

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va rolini oshirish, OAVning huquq va erkinligini ta'minlash, inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarning lozim darajada bajarilishida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini mustahkamlash masalasida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi va fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – NNT) va fuqarolik jamiyati boshqa institutlariga tanlov asosida davlat grantlari ajratib kelinmoqda.

Davlat granti nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun tanlov asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan beriladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir.

Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari (keyingi o'rinlarda — hududiy jamoat fondlari) orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Nodavlat notijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakliga ta'rif berish uchun uni aniqlab beruvchi har bir belgini tahlil qilish zarur.

Tashkiliy huquqiy shakli bir-biriga o'xshash bo'lgan notijorat yuridik shaxslarning huquqiy holatini aniqlash va bir-biridan farqlash uchun O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va maxsus qonun hujjatlarida (Axborotnoma, 1999) notijorat yuridik shaxslarga xos bo'lgan barcha zarur belgilarga e'tibor qaratish, ularning aniq ta'rifini tushunib olish zarur. Nazarovning (2012) fikricha, har qanday jamoat tashkiloti ijtimoiy va, eng avvalo, huquqiy normalarga asoslanadigan tashkiliy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Jamoat tashkilotlari ongli ravishda tizimlashgan ichki tashkiliy munosabatlar yig'indisi va ijtimoiy voqelikka maqsadga muvofiq tarzda ta'sir etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy usullarning butun bir kompleksiga ega bo'lgan institut sifatida maydonga chiqadi.

Jo'rayeva (2009) fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida ko'proq siësiy-huquqiy jihatiga e'tibor qaratadi. Jumladan, "aholining siësiy haëtda faol ishtirok etishiga ko'maklashish o'z ta'sir doirasidagi fuqarolarni hukumat tomonidan qabul qilingan ëki tayërlanaëtgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish, qaror qabul qilish jaraëniga ta'sir ko'rsatish yo'llarini tushuntirish" deb qayd etilgan.

Xolmanova (2012) nodavlat notijorat tashkilotlarining paydo bo'lishi xayriya jamg'armalari bilan bog'liq ekanligini keltirib o'tgan.

Nelyubinaning (2010) qayd etishicha, nodavlat tashkilotlarning asosiy vazifasi davlat tomonidan va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalariga jalb qilingan ishtirokchilari tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishi uchun fuqarolik nazoratini ta'minlashdan iborat

Salamon va Sokolovski (2016) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda nohukumat tashkilotlar davlat va biznes bilan bir qatorda "uchinchi sektor"ni tashkil qilishini qayd etganlar. Ular nodavlat tashkilotlarning yana boshqa nomlanishi sifatida fuqarolik yoki notijorat tashkilotlar degan tushunchalar mavjudligini ham e'tirof etishadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy munosabatlari bo'yicha juda kam ilmiy izlanishlar olib borilgan.


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat grantlari ajratish uchun Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining asosiy moliyaviy manbasi davlat byudjetining respublika darajasidagi byudjeti hisobidan shakllansa, Hududiy jamoat fondlarining manbasi esa asosan mahalliy byudjet hisobidan ta'minlanadi.


2008-yilda 7 ta NNT va fuqarolik jamiyati institutlariga 379 mln. so‘m davlat granti ajratilgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatgich 231 ta 6 mlrd. 550 mln. so‘m, 2022-yilda esa 160 ta tashkilotga 12 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan.



1- rasm. 2008-2023-yillarda davlat granti tanlovlarida moliyalashtirilgan loyiha vaajratilgan mablag‘lar⁵²

Shu bilan bir qatorda Parlament komissiyasi va Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan 2020-2023-yillarda hududlarda davlat grantlari to‘g‘risida 200 dan ziyod o‘quvlar va “mahorat darslari” tashkil etilgan. Natijada, 2021-yildan boshlab hududiy vakillik organlari huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash Hududiy jamoat fondlari to‘laqonli faoliyatini boshlagan. Joylarda ijtimoiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2021-yilda maxalliy byudjetlardan 313 ta loyiha 9 mlrd. 377 mln. so‘mga, 2022-yilda 241 ta loyiha 9 mlrd. 23 mln. so‘mga moliyalashtirilib 2023-yilda 250 dan ortiq loyixalarni 13 mlrd. so‘m yaqin mablag‘lar bilan moliyalashtirish rejalashtirilgan.

Qo‘llab-quvvatlangan davlat granti loyihalari doirasida quyidagi ijtimoiy muammolarni xal etish uchun yo‘naltirilgan mablag‘larni ko‘rish mumkin:



2- rasm. Davlat granti loyihalarining ijtimoiy muammolarni hal etish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar⁵³

⁵² Oliy Majlisi huzuridagi jamoat fondi ma'lumotnomasi

⁵³ Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Ajratilgan mablag'lar natijasida, 17 886 ta davra suhbatlari va tadbirlar tashkil etilgan va ularda 2 459 973 nafar fuqaro qamrab olingan hamda 1 810 nafar ko'ngilli jalb etilgan. 13 322 nafar fuqaroga ijtimoiy, xuquqiy, tibbiy, psixologik yordam, 77 899 nafar fuqaroning bilim, ko'nikmalari oshirilgan va kasbga o'qitilgan, 6 414 nafar fuqaroni bandligi ta'minlangan hamda 546 ta fuqaroga kredit ajratilishiga yordam ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, 19 977 nafar fuqaro san'at va kitobxonlikka jalb etilgan. 180 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar sportning paralimpiya turiga va 13 778 nafar fuqaro sog'lom turmush tarziga jalb etilgan. 27 ta sport maydonchasi va 19 ta mahallani obodonlashtirishga ko'maklashilgan. 15 ta kutubxona, va 8 ta o'quv kurslari va to'garaklar tashkil qilingan. 500 ta brayl yozuvli kitoblar chop etilgan. 120 ta audio kitoblar jamlanmasi shakllantirilgan. 7 902 nafar fuqaro ichimlik suvi bilan ta'minlangan. 100 048 ta tarqatma materiallar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, gender tenglikni qaror toptirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "O'zi yoki qaramog'ida nogironligi bor yaqini bo'lgan xotin-qizlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish borasida, nodavlat notijorat tashkilotlariga berilayotgan grantlar miqdori 5 baravarga oshirilib, 200 mln. so'mgacha yetkaziladi" deb ta'kidlandi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan davlat granti shaklida bir loyiha uchun ajratiladigan mablag'larning miqdori loyihaning maqsad vazifalari va amalga oshiriladigan ishlarning ko'lamidan kelib chiqib 2018-2019-yillarda 18 mln. so'mdan 30 mln. so'mgacha, 2020-2021-yillarda 25 mln. so'mdan 40 mln. so'mgacha va 2022-2023-yillar kelib bir loyiha uchun 50 mln. so'mdan 100 mln. so'mgacha mablag'lar ajratilgan⁵⁴.

Shuningdek, ushbu ajratilgan mablag'lar doirasida turli sohalarda qisqa muddatli va o'rta muddatli loyihalar amalga oshirilgan. So'ngi to'rt yil davomida ajratilgan davlat granti loyihalarini o'rganishlar natijasiga ko'ra qisqa muddatli loyihalarni 6 oygacha, o'rta muddatli loyihalarni 12 oygacha bo'lgan muddat etib belgilasak bo'ladi. 2020-2022-yillarda ajratilgan loyihalarni tahlilidan quyidagilarni ko'rish mumkin⁵⁵:

- 2020-yilda 35 ta grant loyihalari 6 oygacha, 202 ta loyihalar 7 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda;

- 2021-yilda 11 ta grant loyiha 5 oydan 6 oygacha, 279 ta loyiha 7 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda;

- 2022-yilda 160 ta loyiha 8 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda;

- 2023-yilda 192 ta loyiha 8 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda amalga oshirilmoqda.

O'tkazilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, davlat granti shaklida bir loyiha uchun ajratiladigan mablag'larning miqdori oshirilgan sari NNTlar tomonidan taqdim etilayotgan loyihalarni amalga oshirish muddatlari ham oshib borgan. Albatta, loyihaga ajratilayotgan mablag'lar miqdori loyihaning maqsadi, vazifalari va amalga oshiriladigan ishlarning ko'lamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak.

Bir tomondan NNTlarni qo'llab-quvvatlash ikkinchi tomondan mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni xal etish uchun yo'naltirilayotgan davlat granti mablag'laridan samarali foydalanish masalalari ham mavjud. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni 2018-yilda qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlari hisoblanadi. Ya'ni NNTlar o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarni jamoatchilik nazorati subyekti sifatida o'zlarini o'zlari nazorat qilishlari mumkin, ammo bu nazorat haqqoniy va samarali bo'ladimi? Shu sababli, NNTlar va fuqarolik jamiyati

⁵⁴ Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi ma'lumotnomasi

⁵⁵ Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi ma'lumotlari asosida tuzildi

instituti tomonidan davlat ko'magida amalga oshirilgan loyiha va dasturlarning natijalari yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni oshirish, samaradorlikni baholash⁵⁶ masalasi "O'zbekiston – 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasiga kirgani o'rinli deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda tadqiqot olib borish jarayonida NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari oldida yechimi kutayotgan dolzarb muammolar xam mavjud.

1. Davlat granti hisobiga faoliyatini yuritadigan NNTlar moliyaviy manbalaridan va barqarorligidan kelib chiqib mehnat munosabatlarini amalga oshiradi va bunda quyidagi qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin:

- aksariyat NNTlar "grantdan-grantgacha" prinsipiga asoslangan holda ishlashga o'rganib qoladi. Grant tanlovlarida g'olib bo'lib, tavsiya etilmagan taqdirda ustavida belgilangan faoliyatini ham maromida bajarmaslik;

- ba'zi hollarda faqat davlat granti mablag'lari evaziga ishlaydigan va yashaydigan NNTlarning xodimlari bir loyihadan boshqa loyihaga o'tib ishlaydi yoki bir xodim bir vaqtning o'zida bir nechta lavozim vazifalarini bajarishi amaliyoti mavjud. Bu esa xodimlarni samarali boshqarishga va loyihalarning maqsad va vazifalariga erishishga ham o'z ta'sirini o'tkazadi;

- grant hisobiga faoliyat yuritadigan NNTlarda moliyaviy resurslar tanqisligi paydo bo'lgan hollarda NNT rahbarlari ish beruvchi sifatida o'z qonuniy majburiyatlarini bajara olmaydigan vaziyatlar bo'ladi. Ayniqsa grant loyihasining byudjetida bunday xarajatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, ish vaqtidan tashqari ish uchun kompensatsiya va qo'shimcha haq to'lashga imkoni bo'lmaydi.

2. Har yilgi e'lon qilinadigan davlat granti mavzularining yo'nalishlari ochiq jamoatchilik muhokamasiga asoslanib belgilanadigan tizimni joriy etilishi zarur deb hisoblaymiz. Davlat granti mavzularining yo'nalishlari moliya yilining boshida ochiq platformada hamda OAVlarda keng yoritish orqali jamoatchilik muhokamasiga qo'yish taklif etiladi.

Buning natijasida joylardagi bugungi kundagi dolzarb muammolarni hal eta oladigan loyihalarga va sohalarga ko'proq e'tibor qaratilishiga erishiladi.

3. Davlat granti shaklida qo'llab-quvvatlashning hajmlarini oshirish bunda har bir loyiha maqsad vazifalaridan kelib chiqib 200 mln. so'mgacha bitta loyihani moliyalashtirish taklif etiladi. Davlat grantining moliyalashtirish hajmlari oshirilishi uning nufuzini yuksaltiradi, ko'proq NNTlar davlat granti tanlovlarida ishtiroki kengayadi, talabgorlar ko'paygan sari esa raqobat kuchayadi. Raqobat bor joyda ochiqlik shaffoflik ta'minlanadi va loyihalarning sifati oshadi.

4. Davlat granti bo'yicha qo'llab-quvvatlanadigan loyihalarni amalga oshirilishida davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish mexanizmini joriy qilish kerak deb hisoblaymiz. Qo'llab-quvvatlanayotgan grantlarni hajmi oshganidan so'ng uni nazorati ham kuchaytirilishi zarur bo'ladi. Bunda har bir davlat granti loyihasini sohasidan kelib chiqib tegishli davlat organlarini ushbu loyiha hamrohlik va ijtimoiy sheriklik prinsiplarida yordam ko'rsatishi hamda o'z o'rnida loyihani byudjet mablag'lari hisobidan samarali amalga oshirishini nazoratini yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi.

5. NNTlar tomonidan har bir grant loyihalarini tayyorlashda ijtimoiy muammoni joylarga chiqqan holda tahlil qilish va loyiha maqsad vazifalarini belgilashda jamoatchilik fikrini ham o'rganish lozim hisoblanadi. Ushbu tartibda ishlab chiqilgan loyihalar sifati yana ham yuqoriroq va qo'yilgan masalani ahamiyati yana ham dolzarbroq bo'ladi. NNTlar tomonidan loyiha sifati tashqari uning barqarorligi va davomiyligiga ham e'tibor qaratishlari muhim. Qisqa muddatli loyihalardan asta sekin uzoq muddatli va ijtimoiy ahamiyati ko'proq

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PQ-300-son qarori

saqlanib qoladigan loyihalarni tashkil etish va davlat tomonidan ushbu loyihalar qo'llab-quvvatlanish maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Ilmiy ta'dqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, NNTlar ijtimoiy masalalarni hal etish yo'lida o'z faoliyatini olib borar ekan, ularning moliyaviy barqarorligi ta'minlanishida davlat tomonidan grantlarning ajratilishi, shuningdek, ularni hajmlarini oshirib borilishi mamalakatda insonparvar demokratik davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etilayotganini ko'rish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Axborotnoma (1999) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 115-modda.

Jo'rayeva S. (2009) Fuqarolarning siësiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli // *Demokratlashtirish va inson huquqlari*. – № 4. –B.24

Nazarov Sh. (2012). *Konstitutsiya va jamoat birlashmalari*. / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A.X. Saidov. –Toshkent: TDYUI, – B. 30

Nelyubina Ye.V. (2010) *Garantii i zaxita sotsialnyx prav cheloveka i grajdanina v Rossiyskoy Federatsii* // *Gosudarstvo i pravo*. – № 5. – S. 101–102.

Salamon L.M. and Sokolowski S.W., (2016) *Beyond nonprofits: Re-conceptualizing the third sector*. *VOLUNTAS: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations*, 27(4), – PP. 1515–1545.; Anheier H.K. and Salamon L.M., *The nonprofit sector in comparative perspective. The nonprofit sector: A research handbook*, 2, 2006. – PP. 90–114.

Xolmanova D.R. (2012) *O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat birlashmalari tizimidagi o'rni*. Yurid. fan. nom.... dis. TDYUU, Toshkent, <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/37583> (Xolmanova D.R. *The role of non-governmental non-profit organizations in the system of public associations in the Republic of Uzbekistan*. *Disser. cand. of jur. sciences*. TSUL, Tashkent, 2012.)